

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ABDULLA ORIPOV IJODIDA ALISHER NAVOIY AN'ANALARI

Oxbutayeva Zilola

*Alisher Navoiy O'zbek Tili Adabiyoti Universiteti
O'zbek adabiyoti yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: O'zbek adabiyoti o'zining boy durdonalari bilan dunyoni lol qoldirgan. Eng ko'p so'z boyligi Alisher Navoiyga tegishli bo'lib, Navoiy bobomizning ijodi yana bir adabiyot olamining durdonalaridan bo'lgan Abdulla Oripovning ijodida ham aks etgan.

Kalit so'zlar: she'r, Alisher Navoiy, Forsiy til, Xamsa

Har bir shoirning ilhom manbai, o'zi havas etgan shoiri bo'ladi. Buni qarangki bundan besh yuz yil keyin tavallud topgan Abdulla Oripov Alisher Navoiyning g'azallaridagi an'analarni davom ettirdi. Bu ikki ijodkorni bog'lab turgan an'analar qaysi edi? Biz bugun aynan shu savolning javobini topishni maqsad qildik!

Buyuk beshlik – “Xamsa”ni ijod etar ekan, hazrat Navoiy shunday satrlarni bitadi :

Ani nazm etki, tarhing toza bo'lg'ay,
Ulusg'a mayli beandoza bo'lg'ay.

Yo'q ersa, nazm qilg'onni xaloyiq
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.

Xush ermas el so'ngincha raxsh surmak,
Yo'lekim, el yugurmishdur – yugurmak.

Biravkim bir chamanda soyir erdi,
Nechakim gul ochilg'on – ko'rdi, terdi.

Hamul yerda emas gul istamak xo'b,
Bu bo'ston sahnida gul ko'p, chaman ko'p.

Ulug' mutafakkir xaloyiq nazm qilg'onni mukarrar aylamoq – takrorlamoq fikridan yiroq. Ul zotning e'tiqodicha, birovlar ketidan ot surmoq, el yugurgan yo'ldan yugurmoq ma'qul emas. Boshqalar gul tergan chamanda gul istamoq oqil ishi sanalmaydi. Vaholanki, “Bu bo'ston sahnida gul ko'p, chaman ko'p”. Ya'ni har kim o'z didiga mos gulni izlamog'i, termog'i zarur. Buni ijodga tatbiq etilsa, har kim o'z so'zini, o'zigagina xos uslubda ifodalamoq kerak.

Abdulla Oripovning ijodiy dasturi hazrat Navoiyning mazkur fikrlariga har jihatdan hamohang:

Men shoirman,
Istasangiz shu,
O'zimmiki erur shu sozim,

Birovlardan olmadim tuyg‘u,
O‘zgaga ham bermam ovozim...

Bu she‘rning yakunida shoir behos Alisher Navoiy bilan bog‘liq yakuniy xulosaga keladi.

Xayol kabi keng erur olam,
Mayda gapni ko‘tarmagay she‘r.
Kerak bo‘lsa, mening uchun ham
Javob berar bobom Alisher.

Yakun bizga nimani aytmoqda? Har ikkala shoir ham she‘rlarda o‘zgalarni takrorlashni qoralamoqda. Chin shoir o‘z so‘zi bian kuylaydi. Boshqalar ketidan ot surmoq, o‘zgalardan tuyg‘u olish haqiqiy ijodkor ishi emas. Taqlidchilik ijod tabiatiga teskaridir.

Bu ikkala shoir ham hur fikrdir. Alisher Navoiy zamonida Fors tili yetakchi edi. Forsiy tilda Xamsa yaratgan adabiyot axli buni turkiy tilda qilishning imkoni yo‘q deb bilar edi. Hazrat Navoiy ona tilining taqdiri uchun ko‘p kuyundi, uning mavqeini ko‘tarmoq, millatning sha‘nini yuksaltirmoq uchun bor salohiyatini safarbar etdi. Bu millatdan yetishib chiqqan tab‘ ahlini – ijodkorlarni o‘zga lisonda emas, ona tilida bebaho badiiy asarlar bitmoqqa chorladi.

Abdulla Oripov ijod maydoniga kelgan o‘tgan asrning 60-yillarida ham ona tilimiz taqdiri uchun tahlikali vaziyat yuzaga kelgan, ko‘pmillatli sovet xalqining tarkibiy qismi sanalgan millatlar tilining yo‘qola borishi, bir tilga birlashib ketishi haqida “bashorat”lar qilinayotgan edi. Yirik nufuzli anjumanlar tugul kichik tashkilot yoki muassasadagi yig‘inlar ham rus tilida olib borilishi urfga aylangan edi. Barcha idora ishlari ham o‘zga tilda yuritilar, sobiq ittifoqdagi boshqa milliy tillar kabi o‘zbek tili ham deyarli xonadon tili darajasiga tushish xavfini boshdan kechirayotgan edi. Abdulla Oripov ana shunday vaziyatda ijod maydoniga kirdi. Endi uning oldida ham “millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurg‘on oinai hayoti” (Abdulla Avloniy ta‘biri – N.J.) – tili va adabiyotini yuksaltirish yo‘lida jonbozlik qilish vazifasi turar edi. “Ona tiliga tunganmas ishq, uning taqdiri yu kamoloti uchun mas‘ullik va g‘amxo‘rlik – so‘z daholarini birlashtiruvchi birinchi fazilat. Dante italyan tilini xalqaro yo‘qlamada nechog‘lik barqaror etgan bo‘lsa, Navoiy ham shunday vazifani – jahonshumul vatanparvarlik ishini ado etdi.

Tilga, Vatanga mehr bobolarimizdan qonimizga singib kelgan. Navoiy shunday zot edi, u har bir zamona yoshlariga vatanga, el – yurtga muhabbatni, ona tilini qadrlashni o‘z g‘azallari orqali qalblarimizga singdirib ketgan. Shoirlarimiz borki Navoiyni madh etib she‘rlar yozgan. Ammo Abdulla Oripovning Navoiyni ulug‘lab yozgan she‘rida o‘zgacha hurmat bor.

Jahonki muqaddas neni ko‘ribdi,
Bariga onasan ey qodir hayot.
Besh yuz yil naridan boqib turibdi,
Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.
Bobokalonini ulug‘lar ekan,

Abdulla Oripov ohori to‘kilmagan tashbehlarni qo‘llaydi. Mavzuga hech bir ijodkorda kuzatilmagan uslub va mezonlar asosida yondashadi. Hazrat Navoiy bebaho asarlari bilan milliy tilimiz, adabiyotimiz mavqeyini, millatning sha‘nini yuksaklarga ko‘targani ma‘lum. Biroq bu fikrni mana bu tarzda o‘ziga xos poetik talqin etish oson ish emas.

Shu buyuk o'g'lingni ardoqlab dildan,-
Xalqim, ta'zim etsang arzigay tamom.
Uning nomi bilan birga bitilgan
Dunyo daftariga o'zbek degan nom.

Nido tingla bu kun, yurtning tarafdin,
Ey, yiroq Hirotda maskan topgan er!
Ogoh bo'l, Alisher, sen ushbu gapdan:
Har ikki nabirang biri-Alisher

Jahon mehrobida paydo Alisher
Shodmon qasida ayt sen ham, ey quyosh!
Besh yuz yil unga ham nima gap axir,
Mingga qadam qo'ydi yigirma besh yosh

Navoiy va Abdulla oripovlar shunday o'z yurti va millatining hurfikr bo'lishlari uchun kurashgan, yetuk zotlar. Ularning ijodlaridagi takrorlanadigan an'ana ham aslida shu edi. Abdulla Oripov 60-yillarda deyarli unutilayozgan tilimiz uchun kurashdi, bir zamonlar Navoiy turkil til uchun kurashgani kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://zenodo.org/records/7903212>
2. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/download/672/1291/659>
3. <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/download/19399/20102>